

## TILSHUNOSLIKDA TERMINLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Maxmudjonov Samandar*  
«Energetika» fakultetining talabasi

*Ilmiy rahbar: Galiakberova A.R.*  
«O'zbek tili va tillarni o'rgatish” kafedrasi katta o'qituvchisi  
Farg'onan politexnika instituti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tilshunos olimlarning fikrlari jamlanib, umumiy terminologiya nazariyasiga e'tibor qaratildi. Terminologik birliklarning salmoqli miqdorini asosan ot so'z turkumidan hosil bo'lganligi ifoda etildi.

**Kalit so'zlar:** soha, ilmiy-texnikaviy terminologik tizim, nazariya, tilshunoslik, ibora.

**Abstract:** The given article is considered opinions of linguists where author concludes that the word is the based on the term as an important factor. It was expressed that the significant amount of terminological units is mainly formed from nouns.

**Key words:** field, scientific-technical terminological system, theory, linguistics, phrase.

Muayyan soha qamrovidagi har bir tushuncha termin orqali ifodalanadi, shundan kelib chiqib, terminning ta'rifi lug'at tarkibida mantiqan shu tarzda berilgan: "fan, texnika va boshqa sohalardagi ma'lum bir tushunchalarini aniq belgilovchi so'z yoki ibora".

Tilshunos olimlarning fikrlari asosida shunday xulosa kelib chiqadiki, bunda aslida terminning asosi bo'lgan so'z qaysi tushunchani, ya'ni qaysi nominasiyani ifodalayotgani muhim omil sanaladi. Ushbu olimlarning to'g'ri fikrlaridan yana biri shuki, terminologik birliklarning salmoqli miqdorini asosan ot so'z turkumidan hosil bo'lgan leksemalar tashkil etadi. Terminlar aniq jarayon, hodisa va harakat nomlarini ifodalashi sababli asosan ot so'z turkumidan tarkib topgan maxsus tarmoq uchun xoslanadi. Zero, har qanday ilmiy-texnikaviy terminologik tizimda, aniqlikka va ixchamlikka intilish tamoyiliga rioya qilinadi .

R.Rasulov, R.Niyozmatova, Q Mo'ydinovlarning "Nutq madaniyati va notiqlik san'ati" kitobida terminologiya muayyan fanning tushunchalar sistemasi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlarning jami sifatida tarifланади. Nomlari yuqorida qayd etilgan mualliflar har qanday tushunchalar sistemasiga muayyan terminlar sistemasi to'g'ri keladi, deb ta'kidlasalarda, ularning fikrlariga ham ohang tarzda biz ham ma'lum bir muayyan xududga ya'ni shu sohaga tegishli bo'lgan leksik birliklar majmuasiga terminlar sistemasi yaqin keladi deb hisoblaymiz va ularning mazmun-mohiyatini ochib berishga xizmat qiladi. Albatta, yagona bir til nazariyasi chegarasida terminologiya alohida terminlar sistemasini tashkil etishi mumkin. Bunday yondoshuv terminlar uchun boshqa bir definitsiya keltirishga asos bo'ladi.

Terminologiya deganda, ma'lum bir ilm, fan yoki soha terminlarining majmui, hamda terminlarni paydo bo'lishi, tuzilishi, ularni tarkibi va funksiyalari haqidagi bilim tushuniladi. Umumiy terminologiya nazariyasi haqida gap ketganda albatta biror bir predmetga insoniyat tomonidan to'plangan bilimlarni jamlash, izohlash, ifoda etish, bir-biriga muvofiqlashtirish, terminlarning

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

tuzilishi, ishlatalishi, terminologik sistemalarni takomillashtirish, yangi terminlar va termin sistemalarini tuzishning optimal metod va usullarini yaratish, bilimning har xil sohalarga oid bo‘lgan terminlarni universallik xususiyatlarini izlab topish va boshqa vazifalar kiradi. Bularning barchasi bitta tuzilmada o‘z aksini topadi, bunday leksik birlik keltirilayotgan har bir jabhaning o‘z in’ikosiga xos jihatlarni o‘zida mujassam etgan bo‘ladi. Bularning bari terminlar sistemasining bir butunligini ta’minlashga xizmat qiladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu bilan birga terminologik birikmalarni ko‘p leksemaligi, ya’ni ular komponentlarining soni bir nechtagacha bo‘lishi tilshunoslar uchun dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Leksemalarning bir so‘z nuqtai nazaridan emas bir butun ko‘rsatkich tarzida o‘z ifodasini topishi, har birini o‘ziga xos jihatlari ifodasida namoyon bo‘ladi.

Tilshunos olimlarning fikriga ko‘ra berilayotgan nomlar ham shu predmetning yoki sohaning ma’lum bir xususiyati yoki uning ma’lum bir muddatda o‘zining xossalarni birlashtirgan holda namoyon etadi. Ularning bu jihatlari har bir berilayotgan terminning nechog‘li ahamiyatga ega ekanligidan darak beradi, bularning bari uning ko‘p qirrali ekanligida o‘z aksini topadi. Tilshunos olimaning ta’kidiga ko‘ra “...biror - bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ faoliyat kerakli terminbop ma’lumot termin deb ataladigan maxsus nom orqali o‘zining eng aniq va o‘ziga juda mos bo‘lgan ifodasini topishi kerakligini taqozo etadi. Biror hodisa yoki narsaga nom berish faqat odamlar jamiyatiga xos zarurat. Borliqdagi real va noreal ob’ektlarga nomlar topib berilgani sari inson tili shunday qurolga aylanib boradiki, inson ularsiz jismoniy va ma’naviy faoliyatini yurgiza olmaydi”, deb fikrlariga yakun yasaydi.

**Xulosa** qilib aytadigan bo‘lsak, terminlar ham o‘z xususiyatlari doirasida leksik va semantik xususiyatlarni namoyon etadi. Bu esa ularning muayyan darajada o‘ziga xosligini ifoda etadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rinatovna, G. A. (2019). Error correction in foreign languages teaching process. *Вопросы науки и образования*, (4 (49)), 98-101.
2. Галиакберова, А. Р. (2016). ИНСТРУМЕНТАРИЙ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ ПИСЬМА. *Ученый XXI века*, (9).
3. Усманова, З. М. (2022). К вопросам влияния литературы на общество. *Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 169-171.
4. Turdalievna, A. S. (2021). The Renewing Uzbekistan, Democratization of Society and Freedom of the Individual. *Middle European Scientific Bulletin*, 19, 187-190.
5. Turdaliyevna, A. S. (2020, November). GLOBALIZATION PROCESSES AND EDUCATION-UPBRINGING. In Archive of Conferences (Vol. 9, No. 1, pp. 47-49).
6. Jalilov, I. I. U. (2022). К актуальным проблемам становления педагогического мастерства преподавателя. *Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali*, 2(9), 81-89.
7. Jalilov, I. (2019). TO THE PROBLEMS OF INNOVATION INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(3), 344-347.
8. Kadirjanovna, R. O. (2021). Pragmalinguistic Concepts of the Phenomenon of Speech Behavior and Speech Discourse. *International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding*, 8(5), 495-500.
9. Галиакберова, А. Р., & Нигматуллина, А. Ш. (2020). РОЛЬ ОБУЧЕНИЯ, АКЦЕНТИРОВАННОГО НА УЧАЩИХСЯ, В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ. In *ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 67-77).

# INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

10. Shamsunovna, N. A. (2022). THE CONCEPT, ESSENCE, FEATURES OF THE METHODS AND TECHNIQUES USED IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES.
11. Абдугафурова, Д. Г., Афанасьевна, А. В., Большаков, С. Н., Большакова, Ю. М., Бутрим, Н. А., Галиакберова, А. Р., ... & Якубова, Р. А. (2020). ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ.
12. Shamsunovna, N. A. (2019). Integration of the modern pedagogical technologies into the assessment process of students' knowledge. *Проблемы современной науки и образования*, (11-2 (144)), 69-71.
13. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 28, 297–302. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
14. Nargiza Sulaymonovna, Q. ., & Arjunbek Orifjonovich, O. . (2022). KONSEPTUAL METAFORALARNING LINGVOMADANIY HAMDA KOGNITIV XUSUSIYATLARI VA TIL TARAQQIYOTIDA TUTGAN O'RNI. *Scientific Impulse*, 1(3), 594–600. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/1055>
15. Tolibovna, Y. Z., & Nodirovna, B. S. (2021). Phonetic figures of speech and super segmental phonetic devices. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(3), 910–917. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=3&article=150>
16. Yuldasheva Feruza Erkinovna. (2021). POLITENESS MARKERS IN SPOKEN LANGUAGE. *Euro-Asia Conferences*, 37–40. Retrieved from <http://papers.euroasiaconference.com/index.php/eac/article/view/528>.
17. Zarina, U., & Nozanin, G. (2022). The main features of description in “the old man and the sea” by ernest hemingway. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 66–67. Retrieved from <https://conferenceseries.info/index.php/online/article/view/45>
18. Ubaydullayeva Muattar O'rinnbekovna. (2022). USAGE OF DIFFERENT STYLISTIC TROPS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES AND THEIR SPECIFIC CHARACTERISTICS. *Academicia Globe: InderScience Research*, 3(10), 223–227. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/ZX3QW>
19. Khayriddinkizi, K. K. (2021). Strategies of Improving Writing Skill for B1 Learners. *INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND INNOVATIVE TECHNOLOGIES*, 2, 204–207. <http://mrit.academiascience.org/index.php/mrit/article/view/125>